

✓

**BOLALAR
ADABIYOTI
ANTOLOGIYASI**



✓

BOLALAR
ADABIYOTI
ANTOLOGIYASI



$\dot{K}$ [illegible]

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

BOLALAR ADABIYOTI ANTOLOGIYASI

Uslubiy qo'llanma

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim

Ta'lim sohasi: 140000 – O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani

Bakalavriat yo'nalishi: 5141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport,
tarbiyaviy ish.

*SamDU o'quv-uslubiy Kengashining
2012-yil 24-aprelda bo'lib o'tgan
yig'ilish qarori bilan
nashrga tavsiya etilgan
(7-bayonnoma).*

SAMARQAND-2013

394, 709
B 83

UO'K 894.3
KBK 83.30'z
B 83

Bolalar adabiyoti antologiyasi. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri. 2013. – 84 bet.

Mazkur boshlang'ich sinf o'quvchilariga tavsiya etiladigan she'rlar to'plami umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilariga mo'ljallangan bo'lib, unda o'quvchilar yod olishi lozim bo'lgan she'rlar va ularni o'rgatish usullari amaliy ishlanma sifatida ko'rsatib berilgan. Shuningdek, she'r g'oyasi va mazmunining bolalar saviyasiga mos bo'lishiga ham alohida e'tibor berildi.

Ushbu uslubiy qo'llanma boshlang'ich sinf o'qituvchilari va talabalarga, shuningdek, barcha qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.


Tuzuvchilar: A.AZIMOV, Z.QURBONOV,
M.HAZRATQULOV, N.SHAVAZOVA

Mas'ul muharrir f.f.n. F.SHODIYEV

Taqrizchilar: f.f.n. F.SHODIYEV,
dotsent T. QURBONOV

ISBN 978-9943-4079-7-8

©Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti, 2013.



KIRISH

Hayot bizga istiqlolni tuhfa etdi. Buni ko'z nurimizdek saqlash va yoshlar qalbiga muqaddas tuyg'u singari singdirishimiz lozim. Bu muqaddas tuyg'uni ustozlar talabalar ongiga dars jarayonida singdiradilar. Chunki hayot va jamiyatdagi barcha o'zgarishlarning asosi inson tafakkurida sodir bo'ladi. Tafakkurda o'zgarish bo'lmas ekan, ijtimoiy hayotda ham o'zgarish bo'lishi dushvordir. Istiqlol davri-ning yuzaga kelishi ham shuning mahsulidir. Ma'lumki, o'z navbatida har bir jamiyat o'z muammosini yuzaga keltiradi. Bunga muvofiq insoniyatning hayotga qarash tarzini ham o'zgartiradi. Bu ruhiyat bilan bog'liq masaladir. 74 yil davomida o'tmishda o'zini kim bo'lganligini namoyon qilish qudratiga ega bo'lgan, tarixi, milliy qadriyatlaridan mahrum bo'lgan xalq istiqloldan keyin bunga muyassar bo'lgach, unda o'zidan, o'z millatidan g'ururlanish tuyg'usi yuzaga keldi. Chunki u ruhsizlikdan qutuldi, ruhi ozod, hur bo'ldi. Ruhi hur odamning yuragi botir bo'ladi. U hamma narsani yaqin ko'radi, mohiyatini to'g'ri anglaydi.

Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deydi: "Odamlarda o'zligini anglash, milliy g'urur, oriyat, o'tmishdan faxrlanish, porloq kelajakni o'z qo'limizga olganimizdan g'ururlanish kabi tuyg'ular kamol topayapti, ularning bugungi va ertangi kuniga ishonchi ortib borayapti".

Darhaqiqat, bu fikr bugungi kun adabiyotiga ham tegishlidir.

Ma'lumki, hayotda, jamiyatda ro'y bergan o'zgarish albatta adabiyotda o'z aksini topadi. Bu narsa, ayniqsa, she'riyatda yorqinroq ifodalanadi. Bugungi she'riyat kechagi she'riyatdan tubdan farq qiladi. Kechagi she'riyat ko'proq ijtimoiylashgan, voqealar zamirida ko'proq hayot ziddiyatlarini ko'rsatgan bo'lsa, bugungi she'riyat esa o'z nigohini inson botiniy dunyosiga qaratdi, uning ruhiy olamini, tuyg'ularini ochib berish borasida kishini o'zini o'ziga tanitdi. Bunda u o'ziga xos yaratilgan poetik obrazlardan, ramziy ko'chimlardan foydalandi, ularga alohida e'tibor berdi. Buning asosiy sababi inson ruhining murakkab tabiatini teran va to'laroq ochish, shuningdek, ta'sirliroq ifodalash bilan belgilanadi. Chunki, bunga bugun har qachongidan ham ko'ra ehtiyoj sezilyapti.

Shoirning falsafiy tafakkuri, hayotiy mushohadasi lirik qahramon, poetik obrazlar, ramzlar vositasida berilsa, davr ruhini, xalqning orzu istaklarini inson kechinmalarining ta'sirchan va yoqumli bo'lishiga imkon yaratiladi. Bugungi she'riyatda shunday qilinyapti. Shuningdek, bugungi she'riyatda azaliy an'analarga bo'ysunmaydigan yangi yo'nalish, yangicha usul yuzaga keldi. Bu modern she'riyatidir.

Bugungi kun adabiyoti kechagi adabiyotdan bir qancha xususiyati bilan farq qiladi. Ya'ni, odamning qalb iztiroblari, quvonchlarining betakror tahlili va ruhiyatining

turfa ko‘rinishlari inkishofi hamda voqea-hodisalar tasvirini batafsilligi, ularning har biri maqsad sari yo‘naltirilganligi, qahramonlarning o‘ta milliy va individuallashtirilganligi, bozor iqtisodiyotining mohiyatini ochib berishi ila o‘ziga xoslikka ega. Agar umumlashtirib aytsak, voqea-hodisadan ko‘ra, insonning, uning qalbi tahlili birinchi o‘ringa chiqqanligi bilan ajralib turadi.

Ushbu uslubiy qo‘lanmada Pedagogika fakultetining talabalari Bolalar adabiyoti va folklor” fanidan ma’ruza tinglaganlaridan so‘ng, mustaqil ravishda bolalar adabiyoti uchun yozilgan she‘rlarni yodlashadi. Ushbu uslubiy qo‘lanmada talabalarga yordam sifatida, ya’ni maktabga borib o‘qituvchi bo‘lib ishlash jarayonida qo‘l keladigan 1,2,3,4-sinf o‘qish kitobida berilgan she‘rlarni keltirdik. Q.Abdullayeva, M.Yusupov, M.Mahmudova, S.Rahmonbekovalarning, “O‘qish kitobi”. 2-sinf uchun darslik. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2008. M.Umarova, Sh.Hakimovanning „O‘qish kitobi”. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent “Cho‘lpon” nashriyoti, 2008. S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G‘ulomiva, Sh.Sariyev, Z.Dolimovlarning „O‘qish kitobi”. 4-sinf uchun darslik. Toshkent, 2007. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan darsliklarda berilgan sherlarni tanlab oldik.

Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda bolalar adabiyoti o‘z oldiga kelajak avlodni jismonan baquvvat, ruhan pok, fikran sog‘lom, iymon-e’tiqodi butun, bilimi, ma’naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tarbiyalashdek katta va murakkab vazifani bajarishda o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

XALQ OG'ZAKI IJODIDAN NAMUNALAR

XO'P HAYDA

Xo`p hayda-yo, xo`p hayda,
Qalqon qulog`im hayda,
Temir tuyog`im hayda,
Xirmonni qilgin mayda.
Ostingda bosgan donni,
Tuyog`ing qilsin mayda.
Sen po`stidan judo qil,
Somonni senga foyda.

Chuv, hey jonivorim, hayda,
Xirmonni qilgin mayda.
Ishni tamom qilmasang,
Joningga tinim qayda.
Men belginangga minib,
"Chu-chu" deyman silkinib,
Charchab men ham, jonivorim,
Boraman ko`zim tinib.

Boshingni yerga solma,
So`zimni og`ir olma,
Ko`zim ilinib ketganda,
Sen tag`in to`xtab qolma.

Chuv, hey, jonivorim, hayda,
Xirmonni qilgin mayda.
Donni yig`ib olmasak,
Bizlarga tinim qayda.

KELIN SALOM

Qayrag'ochning pattasi,
Mahallaning kattasi.
Qaynotasiga salom,
Xelu xishtiga bir salom
Yetti pushtiga salom
 Tandirga yopgan pichakday
 Sidirib olgan ichakday
 Qayniog'asiga salom
 Xelu xishtiga bir salom
 Yetti pushtiga o'n salom
Burnilari sirkalgan
Kuyovni ko'rib erkalangan
Qaynonasiga salom
Xelu xishtiga bir salom
Yetti pushtiga o'n salom
 Orqalab o'tin tashigan
 Qayrilib yelkasini qashigan
 Qayni ukasiga salom
 Qavmu qarindoshlariga bir salom
 Og'a-inisiga ming salom.

YOR-YOR

Ota-ona uyini suv oldirib, yor-yor
Boshqa birov uyini quvontirib, yor-yor
Kuzdek mungli dunyoda hech bormikan yor-yor
Bunday borsang nozing kim ko'tarar yor-yor

Chimildiqni bir selpib ko'rsin otang yor-yor
Savdosidan qutildim desin otang yor-yor
Oldir shaldir oq munchoq taqilar yor-yor
Bundan borib onangni sog'inarsan yor-yor

Ota-onang eshigi Bog'dodo eshik yor-yor
Kelganingda sochingni silar eshik yor-yor
Qaynonangni eshigi voxshiy eshik yor-yor
Kirganingda sochingni yular yor-yor

Oftobaga suv qo'ydik ilimaydi yor-yor
O'gay ekan onasi yig'lamaydi yor-yor
Yig'lamagan onasini yig'latmaylik yor-yor
Chibiq bilan urib-urib silataylik yor-yor

Shildir-shildir qamishga sirg'am tushdi yor-yor,
Sinamagan yigitga singlim tushdi yor-yor.
Singlim uchun qovurg'am qayishadi yor-yor,
Singlim bergan uzugim mayishadi yor-yor.

Hay, hay o'lan, jon o'lan, mis panjara, yor-yor,
Har jafoga ko'nadi qiz bechora, yor-yor.
Yig'lama qiz, yig'lama, to'y seniki yor-yor,
Ostonasi tillodan uy seniki, yor-yor.

Shohi ko'rpa taxlangan to'r seniki yor-yor,
Qo'llarida tillo qamchi yor seniki yor-yor.
Hay, hay o'lan, jon o'lan, o'lan ko'pdir, yor-yor,
O'lan aytgan tilginangdan urgulayin, yor-yor.

LAYLAK KELDI

Laylak keldi soz,
Qanoti qog'oz.
Biz tarafda ham,
Bo'lar endi yoz.
Zavurda baqa,
Patida taqa.
Laylakni ko'rib,
Deydi "vaq-vaqa".

Laylaklar tutar,
Baqani yutar.
So'ng qaqirlashib,
Olamni tutar.

Laylak keldi soz,
Boshlanadi yoz.
Soyda cho'milsak,
Bizga qanday soz!

OQ TERAQMI, KO'K TERAQ

Kamar-kamar qamchini,
Qovurg'aning yanchini.
Oq terakmi, ko'k terak?
Bizdan sizda kim kerak?
Kichkina Salim kerak.

Biz boyagi hovlida,
Navbat bilan aytishdik,

Taraf-tarafga qarab.
Oq terakmi, ko'k terak?
Bizdan sizga kim kerak?
Bizga kerak maktabda,
Eng a'lochi Alisher
Bo'lib tarafma-taraf.

RAMAZON QO'SHIQLARI

Ramazon aytib keldik eshigingizga,
Hudoyim o'g'il bersin beshigingizga.
Mo'ralasak mo'ringizdan tutun chiqar,
Bizga degan qatlamangiz butun chiqar.
Butun chiqsa shu xonadon xayrli eshik,
Shu eshikka buyursin tilla beshik.
Boy boboning tutuni quyuq chiqdi,
Qozonidan bizga suyuq chiqdi.
Suyuqni ham mahtal bo'lib kutib turdik,
Javray-javray tupugimiz yutib turdik.
Bermasa bermasin-ey bemor turdik,
Anqa-sanqa qozoni to'la manqa.

BOYCHECHAK

Boychechagim boylandi, qozon to'la ayrondi,
Ayroningdan bermasang, qozonlaring vayrondir.
Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak

Boychechakni tutdilar
Tut yog'ochga osdilar
Qilich bilan chopdilar,
Baxmal bilan yopdilar

Naqorat

Boychechagim boylandi,
Ko'chama-ko'cha aylandi.
Boychechagim ko'k somsa,
Cho'ntaklarga joylandi.

Boychechagim, boychechak,
Terib olay xushchaqchaq.
Boychechagim, boychechak,
Terib oldim bir etak.
Boychechak gul aslidir,
Navro'z fasli naslidir.
Boychechagim, boychechak,
Kutib olay xushchaqchaq.
Bola, bola boychechak,
Etak to'la boychechak.
Og'ritmang-o, og'ritmang,
Bolalarni javratmang.

Naqorat

Boychechagim bolasi,
Qulog'ida donasi.
Donasini olay desam,
Chiqib qoldi onasi
Eshigingiz tepasida oy ko'rdik,
Hammadan ham shu hovlini boy ko'rdik.

BAHOR KELDI

Bahor keldi, kun isidi,
Yoz keladi arpa pish.
Bug'doylardan oldinda,
Hammasidan burun pish
Sumalak qaynaydi-yo,
Menga bermaydi-yo.
Bermasa bermasin,
Hovlinga kelmasin.
Hovlim, hovlim uzoqda,
Ichgan suvim buloqdan.
Icha-icha mast bo'dim,
Qizlar bilan do'st bo'ldim.

Qizlar ketdi qir oshib,
Men qop ketdim adashib.
Sumalak qaynaydi-yo,
Menga bermaydi-yo

MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARI

GAR YAXSHI YO'NILMASA...

Munis

Gar yaxshi yo'nilmasa qalamlar,
Shak yo'qki, yomon tushar raqamlar.
Zebo qamishing nayshakar bil,
No'shida aning shakar, samar bil.

Harfdin oqib sharobi ma'no,
Olam ishi intizomi andin.
Ul bo'lmasa bo'lmag'ay kitobat,
Bu bo'lmasa qolmag'ay hikoyat.
Xatdin maqsudi erur xati xo'b,
Ta'lim qovondi bilan jo'b.

MAYMUN BILAN NAJJOR

Gulxaniy

Bor edi Kashmir navohida tog',
Bog'i Eram rashkidin ko'ksida dog'.
Anda imoratga yarog'lik yag'och,
Eni bir quloch, bo'yi 12 quloch.
Bor edi ko'p na'mati alvonlari.,
Xurramu ma'mur edi hayvonlari.
Zulf kabi sunbulu xushro'ylari,
Rohatijon erdi oqar suvlari.
Bir kuni Najjori Xiradmandi farq,
Ko'ngli yog'och yo'g'ingdan dard.
Borib anga kesdi yog'och reshasin.
O'zga toqqa borib yana kesdi yog'och,
Yormoqni magar yana qildi iloj.
Bolta birla bir uchini yordi ul,
Pona qo'yub tesha sari bordi ul.
Tushdi banogoh anga maymun ko'zi,
Oqilu dono sonub ul dam o'zi.
Aydi: Ulus ichra bu bir kasbdur,
Kasbni boshini kessang nasibdur.
Qissayur pir zar emish elga hunar,

Behunar elni dedilar: "go'shti xar"
Men dahi najjorlikni o'rganay,
Bolalarim barchasiga o'rgatay,
Jahd qilib turdi ravon borg'ali,
Ya'ni yog'och qamishni yorg'ali.
Bir bar sari an chu bi kafida rasud,
Mindi yog'och ustiga najjordek.
Kosibi purgurdai pur kordek,
Ketdi hunar shavqi g'ussasi.
Tushdi yog'och ayrisig'a dumchasi.
Bil keyinidin bo'ldi tutilmoqmen,
Mumkin emas bo'ldi qutulmoqlig'i.
Odamining jinsida yo'q qissasi,
Qoldi oning dumchasining hissasi.

TUYA BILAN BO'TALOQ

Gulxaniy. "Zarbulmasal"

Bor edi Farg'onada bir sarbon,
Tevasi bor erdi tug'di nogohon.
Ko'p ayolmand erdiyu ham tangdast,
Ahli ayoli aning bas erdi cho'g',
Ozuqidin kulbasida narsa yo'q.
Hosili dunyo edi, bir tevasi,
Emadurg'on orqasida bo'tasi.
Yuzlanib aytdi: Ayo berahm onam,
Kuydiyo, endi, tutashdi tanam.
Asta-asta yursang ne bo'lg'ay, ne g'am,
Seni sutingdan emay dam-badam.
Aydi onasi: bolasiga boqib,

Ko'zlarini yoshi seldayin oqib.
Ko'rki burundiq kishini qo'lida,
Bu kishining ko'zlari o'z yo'lida
Manda agar zarra kabi ixtiyor,
Bo'lsa edi, bo'lmas erdim zeri bor.

XX ASR ADABIYOTI

TO'G'RI SO'Z BOLA

H.H.Niyoziy

Kelmog'ida maktabdan bir o'g'il,
"To'xta" debon ikki kishi to'sdi yo'l.
Dedi biri: Tanga beraman sanga,
So'zla bir og'izgina yolg'on manga.

Berdi o'g'il fikr ila shirin javob,
So'zlang aka qomatingizga qarab.
Bu so'zingiz aslida yolg'on turur,
Tangaga yolg'onni kim olgan erur.
Sizda ko'p ekan o'zi yolg'on aka,
Siz avval ani sotib aylang ado.
Qolsa kamib yetmay sizdanam,
O'rtog'ingizda ko'p erur bizdanam.

Ofarin aytdilar oni so'zina,
Tangani xolis berib o'ziga.
Hissa qilish to'g'ri so'z har qachon,
Yetkazadur doimiy bo'yla ehson.

HIKOYA

H.H.Niyoziy

Bir kishining bor edi to'rt bolasi,
Yotgan edi uyga kelib xolasi.
Tursa xola erta bila o'rnidan,
Bir so'mi yo'q edi oning qo'ynidan.
So'rdi, chaqirdi bolalardan ani;
Ko'p xafa qilmang, beringiz deb ani.
Har biri ham "Olganimiz yo'q" dedi,
Ichdi qasam "ko'rganimiz yo'q" dedi.
Bildi ota foydasizdir qiynamoq,
Lozim ani olmoq uchun aldamoq.
Barchasin qo'ydi qamab bir uya,
Oldiga har qaysini qo'ydi kuya.
Dedi: "Kimi rost esa har so'zi",
Qora bo'lur o'zicha ikki yuzi.
Kimni agar yolg'on erursa so'zi,
Boru-yo'g'i qora bo'lur o'ng yuzi
Kattasi olgan edi ul aqchani.
Bilmadi ul o'zi uchun ul hiylani
Dedi: "Qora bo'lsa o'zi o'ng yuzim".
Qora qilay chap yuzimni o'z-o'zim,
Qildi qora chap yuzini vahm etib.
Ikki ko'zin turdi eshikka tikib,
Boshqalari olmagan to'g'ridan.
Tik turishib kutdi uni o'g'ridan.
Chiqdi olib barchasini otasi,
Boqdiki chap yuzi qoradir kattasi.
Boqdi o'zi boshqalarning oq yuzi,

Bo'ldi xijolat chiqib egri so'zi.
Berdi dam xolasining so'mini,
Tashladi so'ng shu ila fe'li shumani
Hissa: Kimi bu ila xiyonat qilur,
Bir kun shu ila o'zin xijolat qilur.

KITOB

H.H.Niyoziy

Har ko'ngilning orzusi shul erur obi hayot,
Qadrini bilgan kishiga shubhasiz jondir kitob.
Har murodning boshidir, har muddoasining gavhari,
Har marazlarning shifosi, ya'ni luqmondir kitob


Ko'zni nuri, dil huzuri dillarning darmonidir,
Har qorong'u dilga go'yo mohitabondir.
Har balodan asraguvchi eng muhim qimmat yarog',
Piri vahshat xanjari zulmatga qalqondir kitob.

Har kishi yoshda qilsa ozgina g'ayrat agar,
Tez zamonda oshno bo'lmog'i osondir kitob.

O'QI

H.H.Niyoziy

Ko'zimizga ko'rinib turgan asboblar,
Hech biri bo'lmas edi gar bo'lmasa zinhor o'quv.
Yer ichida ko',ilib yotgan oltin – kumushlar,
Yuzaga chiqdi bori bo'is ato axbor o'qub.
Qiymat umring qilmagin bexuda bekor o'qu.



Gar dilingga aylagan ezgu etmoqistasang.
Qo'y, o'yin tomoshoni g'animat yoshliging,
Shum fellardan o'zingni ayblagil bekor o'qi.
Ey og'il, dunyoda bo;'lmoq istasang oliyjanob,
Oqig'il maktab kelib zinxor o'qi, ming bor o'qi.

AVVAL O'QI

G'.G'ulom

Kecha o'ninchini a'lo tugatding,
Qo'lingda yetuklik guvohnomasi.
Ipak galstukka endi ijozat,
Yigitga munosib yigit jomasi.
Ovozing do'rillar, demak bu uyda,
Ikki erkakning sharpasi hokim.
Onang bo'yginangga tasadduq bo'lib,
Otang maqtanadi: tayanchim, ko'rkim.
Diplomsiz umrni umr ham dema,
Ozgina bilganni bilmadim deb bil.
Olim o'g'il bilan otincha kelin,
Bir ming to'qqiz yuzi elliginchi yil.
O'g'illar toleyin tilab hamma,
Otaning bilgani yaxshi duodir.
Siz qancha donoroq g'olib bo'lsangiz,
Ayni muddaomiz shu muddaodir.

NAVQIRON NASRIMIZ SINOV OLDIDA

G'.G'ulom

Bizning o'lkamizda yo'qalur ofat,
O'limni yengishga sizlar kandidat.

Ertaning, ey adib, shoiralar,
Kishi ruhining injenerlari.
Siz osmon ilmini suvday ichasiz,
Yulduzdan yulduzga zumda ko'chasiz.
A'lochi o'g'lonlar, a'lochi qizlar,
Vatan istagi ham xuddi ana shu.

KITOBIMNI QANCHA SEVSAM OZ BO'LUR

Q. Muhammadiy

Kitobimni qancha sevsam oz bo'lur,
Kitob desam, qo'linga bahor, yoz bulur.
Kitobimni desam agar ko'klam yoz,
Ko'klam yozning umri lekin undan oz.

Tezda chaman yaprog'i sultur qurir,
Kitob chaman bo'stonim so'lmas bo'lur.
Kitobimni quyosh , oy, yulduz desam,
Kitobimdan emas ular o'ylasam.

Biri kunduz bo'lur-u tunda bo'lmas,
Biri tunga bolur-u kunda bo'lmas.
Kitob esa tunu kun o'zim bilan,
Aqlimni o'stirgan so'zi bilan.

Tanitadi menga xamisha odamni,
Bildiradi yer yuzi keng olamni.

DO'ST DO'STGA OYNA EKAN

Q. Muhammadiy

Erkinjon degan o'g'il,
Maqollar mag'zini nuqul.
Chaqqani chaqqan ekan,
Chaqishiga chaqqon ekan.
Qani o'ylang ne ekan,
Ma'nosin agar o'qsang.
Bir-biriga do'st demak,
Bir-biriga ko'z demak.
Do'st bo'lishi o's demak,
Agar odam bir-birini.
Bilib insonlik qarin,
Qo'llab-quvvatlashmasa.
Xech ishni uddalolmas,
Maqsadiga yetolmas.
Do'stlikning sharofati,
Qo'sh qo'l bo'ldi qanoti.
Oyga ham olib bordi,
Yer, zaminning qamradi.
Olam ilmin jamladi,
Olam oila bo'ldi.
Ko'rkam bir oyna bo'ldi.

LOLA

Q. Muhammadiy

Lola bog'chaga chiqib,
Chekkasiga taqdi gul.
Yelkalariga tashlab,

Gulga ko'mildi butkul.
So'ngra uyiga keldi-yu,
Bir yotib dam oldi.
Kiprigiga yumildi-da,
Gul kabi uxlab qoldi.

OYGUL BILAN BAXTIYOR

H.Olimjon

Yashnab misoli bir gul,
Yer ko'kni ovozası.
Tutib ketgandi Oygul,
Jambilning darvozasi.
Ochilmadi shunda ul.
Darg'azab qilich soldi.
Darhol qaytarib oldi,
Kulfatlar sharaq-shuruq.
O'ynab ochilib kechdi,
Darvozalar bo'ldi kul.

TO'LQINNING HIYLASI

A.Rahmat

-Shohim, arslon mu,
Nega qarab turasiz.
Meni asta yashiring,
So'ngra uni ko'rasiz.
Arslon shunda tulkini,
Xilvat joyga berkitar.
Quduq ichiga asta,
Xumraygancha ko'z tikar.

Shu on uning ko'ziga,
Yug'on arslon ko'rinar.
Uni ko'rib arslonshox,
G'azablanar kuyinar.
Aksin ko'rib arslonshox,
O'zin tashlab quduqqa.
Quduqda u o'ladi,
Chiqolmayin quruqqa.

YASHIL KAMALAK

A.Raxmat

Jala quydi shatirlab,
Qushlar uchdi patirlab.
Ko'nglim tongda yorishdi,
O'sha chog'ni xotirlab.

Yoshim bo'lsa yettida,
Boqsam tolzor chetida.
Balqib ko'kning betiga,
Hayron bo'ldim kun bo'yi.

Har narsaga men yuyib,
Aerodromga o'xshatsam.
Na sahni bor, na uyi,
Tortilganday yoy tarang.
Qizil, sariq, rang-barang,
Sof havodan nishon bu.
Ertasiga bir qarang.

ERKATOYIM HALI-YU

A.Rahmat

Asqar ha deb tirjayib,
Nega tomma-tom oshar.
Uyda gilar beparvo,
Qilar uni tomosha.

Koptok bo'lsa tepkilab,
Boshqalarga bermas gal.
O'dag'aylar bekorga,
Bilmay tegib ketsang sal.

Tokay Asqar taltayib,
Taltaytirib buzar ustma-ust.
Ta'lim bering xolajon,
Undan bezor barcha do'st.

Oshiqasiz namuncha,
Erkatoyim hali yosh.
Aqli kirib quyilar,
Bo'lar eslik ham yuvosh.
Shu taxlitga ish tutsa,
Ba'zi ona, xolalar.
Qandoq bo'lib o'sarkan,
Asqar kabi bolalar.

DUM

Quddus Muhammadiy

Bir maktabda gap mish-mish,
Turg'unning dumi bormish.
Xo'sh, bu ajib qanday dum,
Xech kimda yo'q bu udum.
Bilsam, voqea o'zga,
Ilinmas qo'lga, ko'zga.
Ikki degan oti bor,
Na o'zi, na zoti bor.
Turg'unning bilim qarzi,
Sudralmish dum tarzi.
Ro'dapo achchiq ichak,
Ong uyida o'rgimchak.
Dum deya ko'rmang zinhor,
Dum sha'niga nomusiga, or.
Hayvon qushlar sezmasin,
Turg'unjondan bezmasin.
Ular dumi foydalik,
Har birin o'ziga xos.
Qaddiga kelishgan mos,
Qushga uchmoq, qo'nmoqqa.
Molga chivin qo'rmoqqa
Hashoratga tig' yarog'
Yilqiga cho'tka taroq.
Dum borki qaysi jonda
Ishi bor har maqomda
Ammo Turg'un dumichi,
Na boshi bor, na uchi.

Ey Turg'unjon, ko'zing och,
Dum "ikki"ngga qil iloj.

DASTYOR QIZ

Sh.Sa'dulla

Ota ertalab turar,
Jajji dildorni ko'rar.
Kaloshlarini yolg'iz,
Tozalabdi dastyor qiz.

Ota qo'l-betin yuvar,
Dildor unga suv quyar.
So'ng bir daqiqa kutib,
Qo'l cho'zar sochiq tutib.

Ona yozar dasturxon,
O'ltirishar uchovlon.
Tarelkada qand-mag'iz,
Shirinliklar qo'yar qiz.

Bog'chasida ham ilg'or,
Ishsevar chaqqon Dildor.
Oq fartukda yurib tez,
Ovqat tashir dastyor qiz.

Dildor uyda bo'lsachi,
Supurug'li hovlimiz.
Qani sizlar ayting-chi,
Bormi bundan yaxshi qiz?

QO'G'IRCHOQ-O'RTOQ

O'.Rashid

Issiq o'ttiz gradus,
Uydan chiqmaydi Quddus.
Kiyib palto va telpak,
O'tirar jim haykaldek.

Hech narsaga yo'q tobi,
Hammaga shu javobi.
-Yur, hay Quddus, o'ynaymiz,
Sovuq-ku shamollaymiz.

Qara hozir bahor-ku,
Hali tog'da qor bor-ku.
Ana daraxtlarda gul,
Gul bo'lgan bilan yer ho'l

-Tufli kiy, borku sanda,
-O'zim kiyolmaymanda.
-Bo'pti kitob o'qiymiz,
-O'qishni qo'y osh yeymiz.

-Xo'p, yeyishga kim o'zar,
-Menga oyim yegizar.
-O'zing yegin oyingsiz,
-Nega hali yoshku biz?

-Bu yaramas odatni
Tashla tezroq ey o'rtoq

Bunday erkatoy bo'lsang
Deymiz uni qo'g'irchoq

KATTA BO'LSAM

O'.Rashid

Ivib tushdi yomg'irda
Devorimiz bir yog'i
Darvoza ham qiyshayib,
Ketib qopti bir yog'i

Ishdan qaytib qarasam,
Devor urilib qopti.
Darvoza ham bo'yalib,
Qayta qurulib qopti.

O'g'lim dedi: -Dadajon,
Devorni men urgandim.
Devor urish va bo'yash,
Hunarini ham o'rgandim.

"Har bir yigit kishiga
Qirq hunar oz" derdingiz.
Ko'payaypti hunarim
Yodimda shu so'zingiz.

Model yasash, gul ekish.
Rasm solishni bildim.
Ovqat qilish pol yuvish
Rubob chalishni bildim

Taxtachada randalab,
Andava qilib oldim.
Mana devor suvashni
Bo'yashni bilib oldim.

AYASINI AYASIN

Po'lat Mo'min

Nima yesa Hanifa,
Ayasiga ilinar.
Hanifaning bu bilan
Iliq mehri bilinar

Ayajoni charchasa,
O'tiradi yoniga.
Shirin so'zlab kuldirib
Orom berar joniga.

Achom-achom qiladi,
Yuzlaridan silaydi.
Maqtashib bir-birini
Yaxshiliklar tilaydi

Yaxshi ko'rar ayasin,
Hanifadek hamma ham
Ayasini ayasin
Hanifalar yashasin.

KO'ZIM VA O'ZIM

Po'lat Mo'min

Yashasin kelsa mehmon,
To'lib ketar dasturxon
Shakalad marmalade
Hammasi soz g'alati

Konfetga qo'l uzatish
Deyishadi uyat ish
Menga qund iroda bor,
Qilmasamda e'tibor

MOMOQAYMOQ

Po'lat Mo'min

Momoqaymoq quyosh nuri,
Senga ko'proq oqarmi
Yo sariq soch o'zingga
Haddan ortiq yoqarmi.

Bugun ko'rib tanimay,
Ko'plar hayron boqardi.
Nega aytchi soching nega
Bir kechada oqardi

Ohista qo'l uzatsam
Shamol turdi aksiga.
Soching to'zib birdaniga,
Tushdi yilning raqsiga.

Umring bekor o'tmabdi
Shuning o'zi qadrli
Rahmat uch kun bo'lsada,
Yashnatding qir adirni

BOLALIK

S.Barnoyev

Bola bilan til topishmoqlik,
Qiyin derlar
Qariganda bola bo'lmoqlik
Tayin derlar.

Yana derlar aldagani,
Bola yaxshi.
Bola yana ro'zg'or guli,
Uyning naqshi.

Yana derlar bolalik uy,
Bozor bo'lar.
Bolasiz uy bilib qo'ying
Mozor bo'lar

Hamma yaxshi narsalar ham,
Bolalarga.
Bola kulsa tog'u toshlar,
Lolalarga

Shundan hamma bolam deydi,
Bolam deydi.

Bolasidan ortganini,
Terib yeydi.

Nima desak bari bizga,
Siylov bo'lar.
Biz ot bo'lsak, bola bizga
Jilov bo'lar.

Asli dunyo bolalarning
Qo'lidadir.
Tulporlar ham erta ular,
Yo'lidadir.

Bola dunyo, dunyo esa,
Tanti bo'lar.
Bolalikni unutsa kim
Bandi bo'lar.

BIR MINUT

Habib Rahmat

Bir minut oltmish sekund,
Nimani ish berar derdim.
O'tadi-yu ketadi,
Qadrini bilmas edim.

O'ylab ko'rsam men juda
Qilibman katta xato.
Bilsam shu bir minutda,
"Volga" ishlanar xatto.

Masalan o'n ming ishchi,
Kech kelsa bir minutdan.
O'n ming minut yo'qolar,
Sanab chiqsam bir chetdan

XVS bir minutda
Paxta tersa o'n kilo.
Demak o'n ming XVS
Terarkan yuz ming kilo.

Minutdan soat unar,
Ishning rivoji minut.
"Tomchidan daryo"diya
To'g'ri aytgan el-yurt.

Do'stlar minutning ishi,
Mana shunaqa ulkan
Qadriga yetganlarning
Doimo baxti kulgan.

SALOM, MAKTAB!

Shuhrat

Salom, maktab, jon maktab,
Gul bog'laring chiroyli.
Eshiging och kattaroq,
Endi kirib boraylik.
Yoz oylari o'ynadik,
Dala, qir va tog'larda.

Kattalarga qarashdik,
Polizlarda, bog`larda.

Daryolarda cho`mildik,
Tog`ga chiqdik chirmashib.
Gerbariylar to`pladik,
Shahar o`tib, qir oshib.

Soya-salqin bog`larda,
O`ynab yig`dik kuch-quvvat.
“Yana a`lo o`qiymiz!”
Bu bizdagi zo`r niyat.

ISTIQLOL DAVRI BOLALAR ADABIYOTI

ISTIQLOL FARZANDLARIGA

Abdulla Oripov

Erkin bo`ladilar samoda qushlar,
Erkin bo`ladilar uyquda tushlar.
Sahrolar qo`ynida shamollar erkin,
Tutqun bo`lmasa gar xayollar erkin.

Erkin bo`lmasa gar inson farzandi,
Uning oti quldir, unvoni – bandi.
Mustaqil bo`loldi endi o`zbekim,
Navoiy, Boburim, ya`ni o`zligim.

Ozodlik ajdodlar quyoshi bo`ldi,

Armonin aritgan Yurtboshi bo'ldi.
Endi umidimiz faqat Sizlarda,
Istiqlol farzandi- o'g'il-qizlarda.

Ko'p yillar Siz uchun she'rlar bitganmiz,
Shu aziz kunlarni orzu etganmiz.
Millat ona bo'lsa, Siz – g'uncha, bo'ston,
Kelajagi buyuk hur O'zbekiston.

VATAN HAQIDA SHE'R

Abdulla Avloniy

Tug'ulib o'sdim bu Vatanda,
Vatanim misli yo'q jahonda!

Tufrog'lari unumlikdur,
Manzarasi ko'rimlikdur.

Bir tarafda tog'lari bor,
Mevasi mo'l bog'lari bor.

Tog'laridan konlar chiqar,
Yerlaridan donlar chiqar.

Bog'laridur shirin-sharbat,
Anjir, uzum, anor, nashvat.

Havosi o'ta yoqimli,
Cho'llari bor toshlik, qumlik.
Toshkand emas, toshvand erur,

Kesaklari gulqand erur.

O`tar kunlar, o`tar zamon.
Ey, Vatanim, bo`lma hijron.

Men ketsam-da, sen bo`l omon,
Omon-Vatan, Vatan-omon!

O`ZBEGIM

(parcha)

Erkin Vohidov

Tarixingdir ming asrlar
Ichra pinhon, o`zbekim.
Senga tengdosh Pomiru
Oqsoch Tiyonshon, o`zbekim.

So`ylasin Afrosiyobu
So`ylasin O`rxun xati.
Ko`hna tarix shodasida
Bitta marjon, o`zbekim.

Al-Beruniy, al-Xorazmiy,
Al-Forob avlodidan,
Asli nasli balki O`zluk,
Balki Tarxon, o`zbekim.
Tuzdi-yu Mirzo Ulug`bek
Ko`ragoniy jadvalin.
Sirli osmon toqiga ilk-
Qo`ydi narvon, o`zbekim.

Mir Alisher na`rasiga
Aks-sado berdi jahon,
She`riyat mulkida bo`ldi
Shohu sulton, o`zbekim.

Qayga bormay, boshda do`ppim,
Shuhratim, qadrim buyuk.
Olam uzra nomi ketgan,
O`zbekiston, o`zbekim!

O`KTAM AVLOD

Anvar Obidjon

Aziz ota-onamizning qalqonimiz,
Buyuk xalqim, suyuk xalqim, bizga ishon.
Fidodir bu qutlug` Vatanga jonimiz,
Buyuk xalqim, suyuk xalqim, bizga ishon.

Al-Buxoriy, at-Termiziy hazrat bizga.
Ulug`beg-u al-Farg`oniy savlat bizga,
Temur bobo, Manguberdi davlat bizga,
Buyukxalqim, suyuk xalqim, bizga ishon.

Yurtning do`stga ochiq bag`ri bag`rimizdir,
Alpomishning yovga qahri qahrimizdir,
Navoiyning turkey tili faxrimizdir,
Buyuk xalqim, suyuk xalqim, bizga ishon.

Ilmu mehnat bilan inson nasli a`lo,

Inoq bo'lsak, yuz o'girmas tole also,
Ajdodlardek bizlar doim g'olib, dono,
Buyuk xalqim, suyuq xalqim, bizga ishon.

ONA TILIM

Tursunboy Adashboyev

Buyuk Temur jahon bo'ylab,
O'z dovrug'in solgan tilim.
Mir Alisher bobomlardan,
Meros bo'lib qolgan tilim.
Bobur Mirzo she'rlaridan,
Rang va qiyos olgan tilim.
Shunday tildan tonar bo'lsam,
Qiyma-qiyma bo'lsin tilim.
Alla bo'lib jaranglagan,
Ona tilim – jon-u dilim.

O'QITUVCHINING O'GITLARI

Anvar Obidjon

Ey o'quvchi, bilki har so'z
Nondek aziz, nondek uvol.
Til boyligin bir bog' desak,
Har bitta so'z – bitta nihol.

Ulg'ayib yot yurtga borsang,
Ne atalur eling, derlar.
Qay millatning vakilisan,
Bormi ona tiling, derlar.
Shunda, mening qutlug' tilim

Navoiyning she'ri, degil.
Yurtim- Ulug'bek-u Bobur,
Amir Temur yeri, degil.

Maqtanma hech qimmat kiyim,
Oltinlar-u qasring bilan.
Faxr et doim qudratli yurt,
Boy bilim-u kasbing bilan.

Ey o'g'il-qiz, obro'yingni-
Baland tutmoq qo'lingdadir.
Sening olamdagi narxing
Vatan, millat, tilingdadir.

MASALLAR

Qaysar buzoqcha

Olim Qo'chqorbekov

Yaylovda bir buzoqcha
Arazlabdi to'dadan.
Ketib qolib uzoqqa,
Adashibdi podadan.

Yakka o'zi o'tlarkan,
Bobir yaylov to'riga.
Buzoq shunda to'satdan
Duch kelibdi bo'riga.

Ma'rasa ham qancha u,
Bilmabdi do'stlari hech.

Maza qilib och bo`ri,
Uni yebdi o`sha kech.

Bobolar bu haqda der:
“Bo`linganni bo`ri yer”.

SO`NGGI AXBOROT

Anvar Obidjon

Bo`lib o`tdi qishloqda
Kecha zo`r shamol.
Natijada ro`y berdi
Anchayin kor-hol.

Uzum boshi aylanib,
Bo`p qoldi kasal.
Shoxdan yiqilib olma,
Yotibdi o`sal.

Hatto gilos lat yedi,
Bo`lsa ham abjir.
To`qnashuvda anorga
Chaplandi anjir.

Shamollatdi qornini,
Oshqovoq polvon.
Pachiq qildi burnini,
Mulla baqlajon.
Uyquchiroq bir tarvuz
Yumalab borib,

Uyg'onibdi qovunning
Boshini yorib.

Noklar yerga to'kildi,
Bo'lishib bir jom.
Ammo zarar ko'rmadi
Sabzi va sholg'om.

KUZ

Yusuf Shomansur

Bizda yashab, qolmay armoni,
Uchib o'ltar turna karvoni,
Yer-u ko'kni qoplab suroni:
Xush qol, kuz!...

Suvlar oqar sokin va tiniq,
Baliqlarning sharpasi aniq
Eshitilar, oqshom suvga chiq,
Go'zal kuz!

Bog'larda g'arq pishgan olmalar,
Yuzlarida shakar o'rmalar.
Terib olinadi tonnalar,
Har gal kuz!..

Hali bog'larhosilga serob,
Chanoqlarda oltin behisob.
Demak, dostlar, bizga ham shu tob,
Mahtal kuz!
G'ayrat qiling shundayin chog'da,
Hosil yig'ing dala-yu bog'da.

Qoldirmasin sizlarni dog`da,
Jadal kuz.

MEN DADAMGA YORDAMCHI

Quddus Muhammadiy

Fermada tovug`im bor,
Patlari naq oppoq qor.
Krepdeshindan ko`ylagi,
Bo`ylariga yarashgan.

Gul-loladay tojlari,
Qayrilib qoshga tushgan.
Yurishar gala-gala,
Oq, chipor, kulrang, sara.

Qo`shiq aytar qaqillab,
Bekor yurmas laqillab.
Tuxumlar savat-savat,
Yig`ib olamiz sanab.

Bir yoqda jo`jalarim,
Jajji xo`rozchalarim,
Qichqirar qanot qoqib,
O`stiraman men boqib.

Jo`jalarim sevaman,
Don, suvni mo`l beraman.
Dadam fermaga boshchi,
Men dadamga yordamchi.

BIRINCHI QOR

Shuhrat

Guppa-guppa yog`ar qor,
Go`yo k o`kda ini bor.
Tomlar oppoq, yer oppoq,
Shox, novdalar arg`imchoq.
Qarg`a qag`-qag` etadi,
Ko`nglini chog` etadi.
Ol chanangni, ey G`iyos!
Chana otmoq qanday soz!
Mayli, vaqti, ko`p yog`sin,
To`xtamasin, xo`p yog`sin.
Kelganida navbahor,
Suv bo`ladi beg`ubor.
Ariq to`lib oqadi,
Dala, qirga yoqadi.
Lola shundan, gul shundan,
Boychechak, sumbul shundan.
Mayli, yog`sin oppoq qor,
Oyoqlari paypoq qor!
Qishning ko`rki oq qordir,
Yog`masa qish bekordir,
Yog`sin endi bearmon,
Bearmonu sho`x-shodon!
Olam kiysin oq libos,
Oq libos qanday soz!
Oq yo`l senga, oppoq qish,
Himmatingga ming olqish!

QISH ZAVQI

Hamidulla Yoqubov

Tom ustida pashmak tolqon,
Kappa-kappa yesammi?
Tarnovlardan chak-chak oqqan
Suvni sharbat desammi?

Sumalaklar shokilasi,
Novvot bo`lib qotibdi.
O`rik, tutning shox, novdasi,
Nisholdaga botibdi.

Qor qiyomin shimib shudgor-
Semirar qishi bilan.
Chigit eksak, dovrug`i bor,
Paxtakor ishi bilan.

Ish ham shirin, qish ham shirin,
Go`zal har bir faslimiz.
Kuyim jo`shqin! Aytsam sirin:
Zavq bergan hur xalqimiz!

AYAMAJIZ

Qudrat Hikmat

Biyday cho`lu dalalar,
Bo`ralar qor kapalak.
Bog`lar sokin, mizg`ishar
Misoli oq kapalak.
Muz oynalar sovuq yeb,

Anhorchada qirsillar.
Tarnovlarda sumalak
Shodalari chisillar.

Saxiy ona tabiat
Quchog`ida havo sof.
Onda-sonda ko`rinar
Nursiz, qizg`ish oftob.

Ayamajiz izg`iydi
Ko`chalarda tutoqib.
Shox-shabbani tortqilar
Yalmog`izdek yutoqib...

Ko`k maysalar nish urib,
Yerning baland-pastida,
Go`zal bahor serkillab
Yetilar qor ostida.

O`ZBEKISTON POSBONLARI

Safar Barnoyev

Botirlarni kuylab kelgan
Elning ertak, dostonlari.
Har so`zini bilar dildan,
O`zbekiston posbonlari,
O`zbekiston posbonlari!

Bilar yurtning shoni bo`lak,
Bo`lak yer-u osmonlari,

Sadoqatli, chin dovyurak,
O'zbekiston posbonlari,
O'zbekiston posbonlari!

Jasurlikda yo'qdir taraf,
Farzandim der, sarbonlari,
Xizmat qilish deydi sharaf-
O'zbekiston posbonlari,
O'zbekiston posbonlari!

Yigitmisan-yigit bari,
Omon bo'lsin tan, jonlari,
Yomonlikdan yashar nari –
O'zbekiston posbonlari,
O'zbekiston posbonlari!

DUNYONI SAQLAR BOLALAR

(Qo'shiq)

Kavsar Turdiyeva

Ko'zlar bilan, do'stlar bilan,
Sizlar bilan dillashaylik.
Mehr bilan, sog'inch bilan,
Quvonch bilan birlashaylik.
Bu birlikni, ahillikni
Buzay demang, ovoralar.
Vatan bo'ylab, kuylab-kuylab
Hayotni saqlar bolalar.

Naqarat:

Dunyoni poklar bolalar,

Ishonchni oqlar bolalar,
Tinchlikni yoqlar bolalar,
Quvonchni xohlar bolalar,
Ishongan bog'lar – bolalar,
Suyangan tog'lar – bolalar.

Kelajakning iplariga
Umidni bog'lar bolalar.
Eshit, zamin, eshit, samo,
Bizning kuyni eltsin navo.
Mehr bilan tutashsa qalb,
Boshimizga qo'nar Humo.
Humo qushim, samo qushim,
Qutlar gullar, favvoralar.
Yurtga shodlik va obodlik,
Keltirar kimlar?
Bolalar!

BOTIR ASKARCHA

Habib Rahmat

- Dadajon, askar akam
Qadam tashlar gurs. gurs
Vatanimga, xalqimga
Sodiqman deb bergan so'z.
Shundaymi?
Shunday!
Men ularning ukasi,
Qanday bo'lishim kerak?
Vatan ishiga tayyor –
Bo'lib turishim kerak.
Shundaymi?

Shunday!
Vatanimni, xalqimni
Ko'z qorasidek saqlayman.
Askar akamga o'xshab
El ishonchin oqlayman.
- Shundaymi?
- Shunday!
Ofarin ota o'g'il.
Tilginangga bol, shakar.
Sen ham bir kun ulg'ayib,
Bo'lasan botir askar.

ISTIQLOLGA SHARAF-SHON

Abdulhay Nosirov

O'zbekiston davlati,
Bizlar uning qudrati.
Quyosh kabi yashnaymiz,
Safda qadam tashlaymiz,
Bir, ikki, uch...
Bir, ikki, uch...
Mustahkam sarhadimiz.
Eng ulug' maqsadimiz-
Yurtimizni bog' etmoq,
Ko'ngillarni shod etmoq.
O'zbekiston askarlari,
Buzilmaydi saflari.
Istiqlolga sharaf-shon,
Istiqlolga sharaf-shon.

BIZ – ISTIQLOL FARZANDLARIMIZ

Rauf Tolib

Tug'ildik biz orzu bo'lib,
Dilga tushgan yog'du bo'lib,
O'zimizni oldik tanib,
Yashaymiz shu yurt deb yonib.
Qaddi mag'rur, tik boshlari,
Biz- istiqlol farzandlari.
Rizq-ro'zimiz to'liq doim,
Yuzlarimiz yoniq doim.
Tillarimiz biyron-biyron,
Orzuimiz jahon-jahon.
Zamonaning dilbandlari.
Biz-istiqlol farzandlari.
O'g'il-qizning asllari,
Biz mard Temur nasllari.
Temur kabi shijoatli,
Ona yurtga muhabbatli,
Bilimdonmiz, ishbilarmon,
Bizlar bilan yashar davron.
Har yurakda ezgu niyat-
El-u yurtga qilish xizmat.

IKKI QIZ

Habib Sa'dulla

Mening ikki qizim ham
Katta bo'lib qolishdi.
Onalari qo'lidan
Yumushlarin olishdi.

Sahar turib Saida
Hovlimizni supurar.
To ungacha Umida
Choy tayyorlab ulgurar.

Mehmondo`st mezbon kabi
Bezab to`kin dasturxon,
Choy ichirib, kuzatar
Har tong ishxona tomon.

Oqshom kulib kutishar
Bizni ishdan, o`qishdan.
Biri qo`lga suv quysa,
Birovi sochiq tutgan.

Akalari ham xursand
Mehribon singillardan.
Minnatdorlik bildirib,
“Rahmat!” der dillaridan.

Ikkisining qo`lib bor
Uyimizda har ishda,
Shuning uchun deyishar:
Qizli hovli sarishta.

JIGARLARGA TILAKLARIM

Maqsud Shayxzoda

Yillar sizni kutadi,

Siz yillarni kutasiz!
Bir, ikki, uch deguncha
O`smirlikka yetasiz...

Ishlaringiz "besh" bo`lsin!
Quvonch sizga esh bo`lsin!
Hoy, bolalar, bolalar,
Chamandagi lolalar.

Umr bo`yi so`lmangiz,
Sira horib-tolmangiz!..
O`rgandingiz hisob-son,
Goho qiyin, goh oson.

Harflarni tanibsiz,
O`qibsiz yanglishsiz.
Ammo biling, jigarlar,
Juda kam bu hunarlar...

Yana ko`proq bilmoqqa,
Ko`proq bilim olmoqqa,
Ishni egallamoqqa,
Ishni egallamoqqa,
Dunyodan "sir" olmoqqa,

Tarbiyali, gapi rost,
Vijdoni sof, beg`araz
Bo`lmoqqa siz intiling!
Vazifangiz – shu, biling!

BAHOR YAQIN

(Zafar Diyor)

O'tib ketdi qishning sovuq
Ham bo'ronli kunlari.
Ortda qoldi oy, yulduzsiz,
Tim qorong'i tunlari.

Tushdi boshdan issiq telak,
Tashlandilar qo'lqoplar.
Bahor yaqin, bahor yaqin,
Bahor yaqin, o'rtoqlar.

Endi quyosh ko'proq boqar,
Dalalarga, bog'larga.
Quchoq-quchoq yog'du sochar,
Adirlarga, tog'larga.

Bezanishar dala-qirlar,
Chechak taqar o'tloqlar.
Bahor yaqin, bahor yaqin,
Bahor yaqin, o'rtoqlar.

Ko'nglim yana tog'day o'sar,
Ko'rkam bahor kelganda.
Quvongayman dasta-dasta,
Gul-chechaklar terganda...

BAYRAMINGIZ MUBORAK

Yusuf Shomansur

Sakkizinchil mart bugun,
Quvonchlarim bir jahon.
Bayramingiz muborak,
Aziz ona – onajon!

So`zlari bol Durdona,
Mehnatda eng mardona,
Olam ichra yagona,
Sizsiz, ey aziz ona!..

Bizni yuvgan, to`ydirgan,
Quvontirgan, kuldirgan,
Elga mehr qo`ydirgan,
Onajonlar bo`ladi.

Shuning uchun mehribon,
Onalarni ardoqlang.
A`lo o`qib doimo,
Ona hurmatin oqlang.

Sakkizinchil mart bugun,
Quvonchlarim bir jahon.
Bayramingiz muborak,
Aziz ona – onajon!

KO'KLAM YOMG'IRI

Cho'lpon

Uch kunlik yomg'ir
To'xtadi bazo'r,
Bulutlar ko'chdi.

Kech kirgan chog'da
Tol shoxlariga
Shu'lalar tushdi...
Havoning yuzi –
Zaharli ko'zi
Muloyimlashdi...

Sharqning malagi,
Nay kamalagi
Ko'kka ulashdi...

Toldan "sochpopuk",
Qiz ko'ngli "puk, puk",
Taqmoq istaydir!

O'rtoqjonini –
Xayrixonini
"Ha" deb qistaydir...

Lekin shu'lalar
Singib borarlar...
Oqshom "to'r" soldi.

“Sochpopuk” taqish,
Ertaga qoldi!

DARAXTLARNI OQLAGANDA

Yusuf Shomansur

Dam olish kun bolalar
Cho`tka ushlab barobar,
Ishlashdi katta yo`lda,
Daraxtzorda, o`ng-so`lda.

Qoldirmay hech daraxtni
Ohak bilan oqlashdi.
O`quvchilik burchini
Bu safar ham oqlashdi.

Daraxtlar turar qator
Oq shim kiyib olgandek.
Barglar ham beixtiyor
Quvnoq chapak chalgandek.
Qurt-qumursqa, hasharot
Kovak qilolmas endi.
Xursand bo`lib har daraxt
Boshin egib silkindi.

Bolalarga der go`yo:
“Siz hurmat saqlaymiz!
Berib meva va soya
Biz ham burchni oqlaymiz!”

NON HAQIDA

Tolib Yo`ldosh

Non haqida o`ylasam,
O`yim tamom bo`lmaydi.
Siz ham o`ylang, bolalar,
Lekin yomon bo`lmaydi.

Non-da har kun, har yerda
Insonga do`st, qadrdon!
Non qadrini anglaymiz
Hammamiz ham, qadrdon.

“Nanna” desa go`daklar –
Tamshanishin eslayman.
Keksalikda bosh chayqab –
Bugun uzoq eslayman.

Xayolimni chulg`aydi,
O`tmish, ochlik balosi.
Hayot uchun eng zarur
Omillarning a`losi.

Shu non ekan, ko`rganman,
Non-bu hayot, avvalam.
Bilib aytgan bobolar:
“Aziz tuting”, deb bolam!

Oqmi, qora, non bo`lsin,
Mayli, eski, qotgani.

Vaqt kelsa topilmas,
Uning yerda yotgani.

Keksa-yu yosh shu non deb,
Ter to'kishar, o'ylasak.
Kim nima der, biz uni
E'zozlamay, o'ynasak?!
Uning har ushog'i ham
Non, hech to'kib-sochmaylik.
Non – tiriklik, non – hayot,
Tuganmas baxt va boylik!

OTA- ONA DUOSI

Safo Ochil

Olmasam gar ko'nglim to'lmas,
Ota-onam duosini
Olmasam gar yo'lim bo'lmas,
Ota-onam duosini.

Qayda bo'lmay yo'qlagayman,
Mehrini asrab saqlagayman.
Axir, qanday oqlagayman,
Ota-onam duosini.

Umrim bo'yi g'amin yerman,
So'zin durga alishtirmam,
Siymu zardan ortiq derman
Ota-onam duosini.

KAMTARLIK HAQIDA

Erkin Vohidov

Garchi shuncha mag'rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan, manmanlik nechun,
Kibr-u havo nimaga kerak?
Kamtarin bo'l, hatto bir qadam
O'tma g'urur ostonasidan.
Piyolani inson shuning-chun
O'par doim peshanasidan.

HUNARNI SEV

Tolib Yo'ldosh

Hunarni sev, hunarni!
Hunar senga asqotar.
Hunar otin soni yo'q,
Sanasang, qator-qator.
 O'rgan, sen ham yigitsan,
 Yetmish turi oz senga.
 "Hunarli er kam bo'lmas"
 Maqolin ol esingga.
Mayli, duradgor usta,
Chilangar bo'l, xohishing.
Xalqqa biror manfaat
Yetkazsin qilgan ishing.
 Binokor bo'l, ha balli,
 Bizga soz uylar kerak.
 Bastakor bo'l, marhamat,
 Sho'x, shirin kuylar kerak.

Humarli bo'l, ilm ol,
Har ikkisi ham zarur.
Hunar – bu baxt-u iqbol,
Belga quvvat, ko'zga nur.

YURTIM, ADO BO'LMAS ARMONLARING BOR

Muhammad Yusuf

Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor,
Toshlarni yig'latgan dostonlaring bor.
O'tmishingni o'lab og'riydi jonim,
Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor.

Yurtim, ko'nglingdek keng osmonlaring bor,
Yulduzni yig'latgan dostonlaring bor.
Osmonlaringdan ham diydoringga zor,
Jayrondek termulgan Cho'lponlaring bor.

Qo'ling qadog'iga bosay yuzimni,
Onamsan-ku, og'ir olam so'zimni.
Qayinbarglar yopib qaro ko'zini,
Olislarda qolgan Usmonlaring bor.

Qurboning bo'layin, ey onajonim,
Sening faryodlaring – mening fig'onim,
O'tmishingni o'ylab o'rtanar jonim,
Aytdam ado bo'lmas armonlaring bor.

QUVNOQ O'TSIN TA'TILINGIZ!

Ilyos Muslim

Ko'm-ko'k baxmal tog'lardan oshib,
O'quvchilar, o'ynab-kulingiz!
O'lkamizda go'zal yoz chog'i,
Sizni kutar lola-gulingiz.
Bel baravar barra o'tlarni
Kurt-kurt yeydi qo'y-qo'zichoqlar.
Biz ham shodmiz siz kabi, - deya
Qirda kishnar toy-qulunchoqlar.
Bir zum o'tmay moniy osmonda,
Turnalar keng yozar arg'imchoq.
Qaytib kelgan laylak, qaldirg'och,
Inlariga qo'nib vaqt chog'.
Shunday ko'rkam faslni ko'rib,
Kimning zavqi toshmaydi deysiz?..
Qanday fayzli tog', dala bizda,
Bolajonlar, o'ynab-kulingiz!

SERQUYOSH O'LKA

Zafar Diyor

Dolstlar, mening yurtimni
O'zbekiston deydilar,
Dong'i tutgan dunyoni
Bog'-u bo'ston deydilar.

Osmoni keng, beg'ubor,
Shifobaxshdir havosi,
Dimog'larni chog'etar

Uning shodon navosi.

Chaman erur bog`lari,
Tog`liklari ulug`dir,
Qir, adir, o`tloqlari
Gul-lolaga to`liqdir...

Bog`larida mevalar
Sharbat bo`lib pishadi,
Uzum, olma, behilar
Yo`lingizga tushadi...

Shunga ko`ra deydilar:
Serquyosh O`zbekiston,
Baxtiyor bu zaminda
Yashnagan bog`-u bo`ston.

MARDLIK VA AQL YORUG`LIGI

Miraziz A`zam

Bir gapim bor, ukajon,
Diqqat bilan quloq sol.
Aytsam, o`gitga o`xshar
Aytmasam lekin uvol.

Bir o`g`lonning shu gapi
Ko`nglimga og`ir tegdi:
"O`g`il bolaga ilm
Juda zarurmi? – deydi.
-O`g`il bola pahlavon,

Kuchga to'la, zo'r bo'lsin.
Marddek tursin maydonda,
Yuragida qo'r bo'lsin".

Bu gapi-ku yomonmas,
Hamma mard bo'lsa qani!
Bilinga oid gapi
O'ylatib qo'ydi mani.

Mardlik buzilib ketgay
Miltiq chiqqan zamonda.
Yuzta mardni bir nomard
Otib tashlar maydonda.

Miltiqni mardlik bilan
O'rganib bo'lmas lekin.
Kitob varaqlash kerak
Qunt bilan sekin-sekin.

Aqlni faqat ilm
Yorug' qilar, ukajon.
Olg'a boshlar begumon.

O'g'ilga mardlik kerak,
Ilm ham kerak tayin.
Ilmsiz mardning esa
Holiga yig'lar maymun.

KUZ

Shukur Sa`dulla

G`ir-g`ir shamol yeladi,
Buni hamma biladi.
O`giradi yelga yuz:
-Marhamat! Kel, oltin kuz!
Maktab borar qiz-o`g`il,
Qo`lda kitob hamda gul.
Oltin oqar daladan,
Tong yorishgan palladan.
Quyosh tushar taftidan,
Qo`rqib qishning aftidan.
Sarg`ayadi ko`katlar,
Barg to`kadi daraxtlar.
Hosil yig`ib olinar,
Qishga zamin solinar.

DEHQON

Sulaymon Rahmon

Dehqon desam, ko`z o`ngimda
Jonlanadi saxiy inson.
Dehqon desam, ko`z o`ngimda
Yashnab turar bog`-u bo`ston.

Jonlanadi, dehqon desam,
Sahrolarda kulgan bahor.
Ko`z o`ngimda: saxiy g`o`zam,
Savat-savat olma-anor.

Ko`z o`ngimda: tonggi gullar
Dimog`imga ufurar hid.
Ko`z o`ngimda: qadoq qo`llar,
Yuzlarida ter – marvarid.

Dehqon desam, ko`z o`ngimda
Namoyondir yoz quyoshi.
Unga ixlos ko`p ko`nglimda
Dehqon – go`yo Yer naqqoshi!

BO`RINING TABIB BO`LGANI HAQIDA ERTAK

Anvar Obidjon

Nelar bo`lmas jahonda!...
Yer go`yo ters aylandi.
Tabiblikka o`rmonda
Yirtqich Bo`ri saylandi.
Ana qarang,
Tish qayrab
O`tirar shum shifokor.
Yo`lga boqar jovdirab,
Tezroq kelsa deb bemor.

Keldi ingrab Quyonvoy,
Shalvirab ding qulog`i.
Qadamlari poyma-poy,
(balki, tortmas oyog`i.)
-qani, o`tir.
Xix-xix-xi...

Darding nima?

Ayt. Inim.

-Bo`ri og`a,

Uch kunki –

Tinmay og`rir biqinim.

Bo`ri yaqin o`tirdi,

Dono bilib o`zini.

Biqin qolib

Tekshirdi –

Quyoning chap ko`zini.

- Kechikamiz dingquloq,

Ko`rmasak tez chora gar.

Oshqozonnig sal chatoq,

Buni... “tumoq” deydilar.

Biz tabiblar bu dardni

Juda yaxshi bilamiz.

Qorning yorib,

Sen mardni –

Muolaja qilamiz.

Qani rozi bo`l shartta,

Keyin rahmat aytasan.

Omon qolsang, albatta –

Uyga tirik qaytasan.

Dikkaytirib dumini,

Qochib qoldi tez Quyon.

Bechoraning biqini
Og'rimas shunda buyon.

Keyin og'rib tomog'i,
Keldi yig'lab yosh To'ng'iz.
Ushlab ko'rib oyog'in,
Bo'ri dedi:
-voh, esiz!..

Tomoq og'riq boshlanar
O'ng oyoqning payidan.
Kesib olsak soz bo'lar,
Go'shtlikkina joyidan.

Bo'ri tayyor deb o'lja,
Yutar ekan so'lagin:
Fursat poylab to'ng'izcha
Rostlab qoldi juftagin.

BUNI TOPING, QIZLARIM

G'afur G'ulom

-To'ni silliq, tuki yo'q,
Hammasi to'q, po'ki yo'q.
Ichi qizil, ko'ki yo'q,
Uni cho'qolmas chumchuq.
Bu nima, qizim, Qunduz?
-Bumi, dadajon, ...

-Marjon-marjon yumaloq,

Yaproqlari shapaloq.
Qora, qizil, sariq, oq,
Yeb ko`rmasdan o`ylab boq.
Sen ayt, mamlakat qizim?
-Bumi, dadajon, ...

Malla tikli, sap-sariq,
Murabbosi mazali.
Palovga bossa bo`lur,
Omborga ossa bo`lur.
Tishlab ko`rib, ayt, Mehri?
-Bumi, dadajon, ...

-Mayda yoqutday qizil,
Shirin, mayda, xilma-xil.
Qalin, taxir po`sti bor,
Hamma yerda do`sti bor.
Sen ayt-chi, qizim, Gulnor?
-Bumi, dadajon, ...

QISH TO`ZG`ITAR MOMIQ PAR

Qudrat Hikmat

Savab bulut to`shagin
Qish to`zg`itarmomiq par.
Yerga serbar oq namat
Yozilganday yaltirar.
Mahalla-ko`y ko`chada
Chuvurlashib qor kurar.
Esib sovuq izg`irin:

-Tezroq yur!-
deb buyurar.
Pirpiratib ko`zini
Avtobuslar o`tadi.
Qahraton qish hovurni
Marjon kabi yutadi.
Qorga deyman: - Namuncha
Zeriktirding uchqunlab?
Yoq`masding-ku ilgari
Surunkasi uch kunlab.
Tomlar kiydi oq qalpoq,
Hovlilarda sen tepa.
Osmon elak, nazdinda,
Shahrimizga un separ.
Yetar shuncha yog`ganing,
Uzoq dala, qirga bor!
Ular seni kutmoqda,
Har zarrangga bo`lib zor.
Vodiylarga fayz berib,
Gul, bog`-u rog`ini.
O`ra kumush choyshabga
O`lkamning har yog`ini.

NURXON BILAN BURHON

Miraziz A'zam

Nurxon qiz munkidi-yu,
Savati uchib ketdi.
Qulupnayi sochilib
Har yoqqa qochib ketdi.

Burhon xaxolab kulib,
O`zi ham qoqildi-ku!
Kesilgan daraxt kabi
Gursillab yiqildi-ku!
Nurxon unga kulmadi,
Do`ppisin qoqib berdi.
“Yomon yiqilmadingmi,
Qursin, falokat”, - dedi.
Burhon qattiq uyaldi,
“Zararsiz”, - dedi Nurxon.
Qulupnayni “puf-puflab”
Savatga terdi Burhon.
Chirandi-yu, odobda,
Nurxonga yutqazdi u.
... Qulupnayday qizarib,
Savatni tutqazdi u.

KIMNING XATI CHIROYLI?

Sulton Jo`ra

Solishtirib ko`raylik,
Kimning xati chiroyli?
Qani oching daftarni,
Menikiday xat bormi?
Ko`ring hamma harfimni
Qiziqtirar har kimni:
Harfim aniq, go`zal – xush
Qiynalmay mumkin o`qish.
Daftardagi chiziq – sim
Va undagi har so`zim –

Qaldirg' ochdek tizilgan,
U yozilgan tez, ildam.
Harflar bo`lib bo`ysara,
Doim menga bo`ysunar.
O`tirishim to`g`ri, soz,
Qoidaga juda mos.
Ko`kragimni men sira
O`tirganim yo`q tirab.
Chiroyli yoz, yozsang xat!
Chunki bu ham zo`r san`at...
Biz ham bo`laylik, hatto
Alisher kabi xattot.
Shuning uchun lozim, shart
Husnixatga muhabbat...

QUSH TILI

Mirtemir

Qushlar, hey, ketmang uzoq,
Qo`ymayman sizga tuzoq.
Bo`zto`rg`ay,
Bo`zlashaylik.
Tutumtoy,
So`zlashaylik.
Qaldirg' och,
Quvlayhaylik.
Betilmoch,
Quvnashaylik.
Sa`vaoy,
Sayrashaylik.

Soyma-soy
Yayrashaylik.
Qushlar, hey, ketmang uzoq,
Qo'ymayman sizga tuzoq.
Cho'chimang, hoy chumchuqlar,
Laylag-u chug'urchuqlar,
Ko'kqarg'a-yu, zarg'aldoq,
Bulduruq ham tuvaloq,
Suqsur, oqqush, tustovuq,
Sayranglar menga yovuq.
O'ylamangki, otgum tosh,
O'ylamangki, men bebosh.
Ketmang yiroq, qushlar hey,
Go'yo yorug' tushlat hey,
Qush yurti – men sevgan yurt,
To'qay, tolzor, qopchig'oy.
Mendan qochma, hoy burgut,
Do'stlashaylik, qarchig'ay,
Kaklik, to'ti, bedana,
Sepay tariq, sedana.
Keling, ha, sirlashaylik,
Keling, ha, tillashaylik,
Uzoqlashmang, qushlar hey.
Go'yo yorug' tushlar hey.
Qafasga solmayman, yo'q,
Ko'nglingizni tuting to'q.
Totuv, inoq bo'lgum bor,
Tilingizni bilgim bor.
Bu bola tantiq, demang,

Ya`ni bemantiq, demang.
Tantiqligim emas bu,
Mundaqa o`ylamang xom.
Tilingiz bilarkan-ku,
Axir Alisher bobom
Bobomday bo`lsam, deyman,
Qush tilin bilsam deyman.

BAHOR

Qudrat Hikmat

Uchib yurar mayin shamollar,
Yelpib-yelpib anhor yuzini.
Qirg`oqlarda soyabon tollar,
Oyna – suvda ko`rar o`zini.
Tong yellari o`ynoqlab sekin
Jiydazorga kirib yo`qolar.
Maysa o`tlar tebranib sekin,
Orqasidan kuzatib qolar.
Chumchuqlarning og`zida cho`p-xas,
In qo`yishar tutlar ustiga.
Ko`kni quchgan teraklar tinmas,
Oro berar kulrang po`stiga,
Bedapoya yam-yashii o`tloq,
Chinorlarda qushlar chug`urlar.
Ko`klam ko`rkin ko`rdingmi, o`rtoq,
Chamamzordek hamma yoq gullar.

JALA DARAKCHISI

Habib Rahmat

Bahor chog'i osmonda
Shunday hol bo'lar goho:
Gumburlab momaqaldiraq,
Berar xunuk bir sado.
Gumbur-gumbur, gum, gumbur,
Gumbur-gumbur, gum, gumbur,
Go'yo toshlar sharaqlab,
Tusha boshlar yer sari.
Birdan chaqmoq charaqlab,
Porlar olov singari.
Gumbur—gumbur, gum, gumbur,
Gumbur—gumbur, gum, gumbur,
Menga esa tomosha,
Qo'rqib, rangim o'chmaydi.
Bilaman bu toshlarning
Bittasi ham tushmaydi.
Bu guldirak, guldirak,
Jaladan berar darak.

TUT

Mirtemir

G'arq pishibdi tut,
Rang go'yo sut.
Ta'mi ham naq bol,
Ko'rmayсан zavol.
Terib-terib ye,

Cholga qulluq de!
Shu-da bog`bon chol,
Mehnati halol.
Bag`ishlar shifo,
Davodan davo...

Gapning sirasi:
Tonglar yorug`i,
Tuproq shirasi,
Quyosh yallig`i –
Shu nuqra tutda,
Bol bilan sut-da.
To`yib-to`yib ye,
Cholga qulluq de!

TINCHLIK QUSHI HAQIDA MEN O`QIGAN SHE`R

Shukur Sa`dulla

Erta bilan turaman,
Salqin shabada esar,
Keng yurtimni ko`raman,
Ko`nglimda quvonch kezar.
Kaptarlarimni ko`ray, -
Deb boraman ohista.
Ozroq bo`lsa ham, qo`shay –
Tinchlik ishiga hissa.
Uchiraman,
Oq kaptar –
Intiladi ilgari.

Yarqiraydi qanotlar
Oq samolyot singari.
Ko`z solaman:
Har uydan
Uchib chiqar oq kaptar,
Charx uradi osmonda,
Tinchlik! – deya solib jar:
Bilsin urishqoq jallod,
Qotil, odamxo`r, battol.
Tinchlik istar yosh avlod,
Katta-kichik, ey-ayol!
Urush bo`lmay jahonda
Tinchlik bo`lsin barqaror!
Erkin uchtsin osmonda
Tinchlik qushi – oq kaptar!...

NAVOIY BOBOMLAR

Tursunboy Adashboyev

Hirof tuprog`ida voyaga yetgan,
“Qush tili” yo`llarini munavvar etgan,
Yillar to`zonidan sog`-omon o`tgan
Navoiy bobomlar
Buyuk odamlar.
“Xamsa”si kon`gilni shamdek yoritgan,
Tilimizni ko`rkam, boy etgan,
Mag`rib-u mashriq ham iftixor etgan
Alisher bobomlar
Qutlug` qadamlar.
Dostonlari chiqmagay yoddan,

So`rang Majnun, Qaysdan, Farhoddan,
Layli, Shirin qaddi shamshoddan,
Navoiy bobomlar
Buyuk odamlar.
Mir Alisher otash zabondir,
Umri boqiy omon-omondir,
G`azallari fidoyi – jondir,
Navoiy bobomlar
Qutlug` qadamlar.

YOZ

Shukur Sa`dulla

Keldi ko`klam kabi soz,
Bizlar sevgan issiq yoz.
Ekin o`sdi yerlarda,
Bug`doy pishdi qirlarda.
Qip-qizardi olchalar,
Uzar yosh bolachalar.
Poliz to`la bodring,
- Dehqon, tez uzib bering!
- Sabr qiling siz andak,
So`yib beray handalak.
Quyosh ko`kda nur sochar,
Yangi dunyolar ochar:
O`rik yetilib pishar,
Yerlarga to`p-to`p tushar.
Olma, anor, nok, bodom,
To`ymaydi yeb hech odam.
Yoz bo`yi bizda har xil
Meva pishar to`qson xil.

NON QAYERDAN KELADI?

Qambar O'tayev

Uyga kelganda mehmon
Oyim yozar dasturxon.
Oldiga non qo'yishar,
Eng avval non yeyishar.
Mehmon uyga yo'l olar,
To'g'ram-to'g'ram non qolar...
Yuz yoshdan oshgan bobom
Dadamlarga der: - Bolam,
Non qayerdan keladi,
Bular qaydan biladi?
Qurit, qopga solib qo'y,
Nobud qilma, olib qo'y.
Bolalar ko'chamizda
Qish, bahor, yoz-u kuzda
Non yeb yurishar gohi,
Tushar yerga ushog'i.
O'yga tolib qolar jim
To'qsonga kirgan buvim,
Ko'ziga yosh oladi:

-Non qayerdan keladi,
Bular qayerdan biladi?
Bobomlar qotgan nonni
Boqsam, qiynalib joni
Hovonchalarda tuyar,
Ushog'in o'pib qo'yar.

SUV BILAN SUHBAT

Zafar Diyor

- Hoy, sen, jiyron toychamdek
O`ynab-o`ynab oqqan suv,
Dalalarga bayramdek
Guldan bezak taqqan suv.

Quloq solgin so`zimga,
Nega buncha shoshasan?
Qayerdan bu kelishing,
Qirg`oqlardan toshasan?

-Yaxshi bola, toychangdek
O`ynab-kishnab kelishim,
Qir, adirlar oralab
Shamol kabi yelishim.

Ko`rasanmi, hu o`sha
Oppoq qorli tog`lardan,
Shoshib oqib kelaman
Dalalardan, bog`lardan.

MUQOBIL TAKLIF

X.Komilov

-Yana kechikding, qo`zim,
Uxlash yomon odating.
-Uxlamas edim o`zim,
Uxlab qopti soatim.
-Unda pul yig`ib biroz,

Sotib olaqol xo'roz.
-Xo'rozimiz bor edi,
Dadam qovurib yedi.
-Bo'lmasa aytgin, oying,
O'yg'otib qo'ysin doim.
-Oyim, to'g'risin deyin.
Turadi mendan keyin.
-Unda do'sting Shotursin,
Seni o'yg'tib qo'ysin.
-Qopog'on itimiz bor,
Qoying bejanjal yursin.
-Ayt ne qilsak bolajaon,
Qolmaysan o'qishingdan?
Eng yaxshisi domlajon,
Darsni boshlang peshindan.

IBRAT

X.Komilov

Garmdori surkadik,
Qo'llarini qayirdik.
Biz oxiri ukamni,
Emizakdan ayirdik.
U ochiqib o'lmadi,
Odatini tashladi.
Ammo oson bo'lmadi,
Uch kun yig'lab g'ashladi.
Otam ham ko'rib qolib,
Bunday azob chekishni,
Ukamdan ibrat olib,
Tashladilar chekishni.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma'naviyat” nashriyoti,2008.
2. Karimov.I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston kelajagining poydevori. – Toshkent: “Ma'naviyat” nashriyoti, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari. – Toshkent, 1997.
4. Karimov I. A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. //“Fidokor”gazetasi, 2002-yil 8-iyun.
5. Razzoqov H. va boshqalar. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: “O'qituvchi” nashriyoti, 1980.
6. Hoshimov K. va boshqalar. Eng qadimgi yodgorliklarda inson tarbiyasiga oid fikrlar. – Toshkent: “Oqituvchi” nashriyoti, 1996.
7. Qayumov A. O'zbek adabiyoti bo'stoni. Qadimiy hikmatlar. – Toshkent.” G'.G'ulom” nomidagi Adabiyot va san'at” nashriyoti,1987.
8. Xayrullaeva M. Markaziy Osiyoda IX- XII asrlarda ilk madaniy uyg'onish. Ma'naviyat yulduzlari. – Toshkent. “A.Qodiriy nomidagi xalq merosi” nashriyoti, 2001.
9. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Darslik. – Toshkent. “O'qituvchi” nashriyoti . 1995.
10. Jumaboyev M . Kichkintoylarning katta adabiyoti. Risola. – Toshkent. “O'qituvchi “ nashriyoti, 1995.
11. Sarimsoqov B. O'zbek bolalar adabiyoti. – Toshkent: “O'qituvchi” nashriyoti, 2003.
12. Boshlang'ich ta'lim uchun o'quv dasturlari. 1-4 sinflar, 7-maxsus son, – T., 1999-2005.

13. Zaynutdinova M. O'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatlarini rivojlantirish omillari. // Xalq ta'limi jurnali, № 1, 2004-yil.
14. Abdullayeva Q., Yusupov M., Mahmudova M., Rahmonbekova S. O'qish kitobi.
15. 2-sinf uchun darslik. – Toshkent “O'qtuvichi” nashriyoti, 2008.
16. Umarova M., Hakimova SH. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: “Cho'lpon” nashriyoti, 2008.
17. Matchonov S., Shojalilov A., G'ulomiva X., Sariyev SH., Dolimov Z. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent, 2007.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

XALQ OG'ZAKI IJODIDAN NAMUNALAR

Xo'p hayda.....	6
Kelin salom.....	7
Yor -yor.....	7
Laylak keldi.....	9
Oq terakmi, ko'k terak.....	9
Ramazon qo'shiqlari.....	10
Boychechak.....	10
Bahor keldi.....	12

MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARI

Gar yaxshi yo'nilmas. <i>Munis</i>	12
Maymun bilan najjor. <i>Gulxaniy</i>	13
Tuya bilan bo'taloq. <i>Gulxaniy</i>	14

XX ASR ADABIYOTI

To'g'ri so'z bola. <i>Hamza Hakimzoda</i>	15
Hikoya. <i>Hamza Hakimzoda</i>	16
Kitob. <i>Hamza Hakimzoda</i>	17
O'qi. <i>Hamza Hakimzoda</i>	17
Avval o'qi. <i>G'afur G'ulom</i>	18
Navqiron nasrimiz sinov oldida. <i>G'afur G'ulom</i>	18
Kitobimni qancha sevsam oz bo'lur. <i>Q. Muhammadiy</i>	19
Do'st do'stga oyna ekan. <i>Q. Muhammadiy</i>	20
Lola. <i>Q. Muhammadiy</i>	20
Oygul bilan baxtiyor <i>H. Olimjon</i>	21
To'liqinning hiylasi. <i>A. Rahmat</i>	21
Yashil kamalak. <i>A. Rahmat</i>	22
Erkatoyim hali-yu. <i>A. Rahmat</i>	23
Dum. <i>Q. Muhammadiy</i>	24
Dastyor qiz. <i>Sh. Sa'dulla</i>	25

Qo'g'irchoq-o'rtoq. <i>O'.Rashid</i>	26
Katta bo'lsam. <i>O'.Rashid</i>	27
Ayasini ayasi. <i>Po'lat Mo'min</i>	28
Ko'zim va o'zim. <i>Po'lat Mo'min</i>	29
Momoqaymoq. <i>Po'lat Mo'min</i>	29
Bolalik. <i>S.Barnoyev</i>	30
Bir minut. <i>Habib Rahmat</i>	31
Salom, maktab! <i>Shuhrat</i>	32

ISTIQLOL DAVRI BOLALAR ADABIYOTI

Istiqlol farzandlariga. <i>Abdulla Oripov</i>	33
Vatan haqida she'r. <i>Abdulla Avloniy</i>	34
O'zbekim(parcha). <i>Erkin Vohidov</i>	35
O'ktam avlod. <i>Anvar Obidjon</i>	36
Ona tilim. <i>Tursunboy Adashboyev</i>	37
O'qituvshinig o'gitlari. <i>Anvar Obidjon</i>	37
Masallar. Qaysar buzoqcha. <i>Olim Qo'chqorbekov</i>	38
So'nggi axborot. <i>Anvar Obidjon</i>	39
Kuz. <i>Yusuf Shomansur</i>	40
Men dadamga yordamchi. <i>Q. Muhammadiy</i>	41
Birinchi qor. <i>Shuhrat</i>	42
Qish zavqi. <i>Hamidulla Yoqubov</i>	43
Ayamajiz. <i>Qudrat Hikmat</i>	44
O'zbekiston posbonlari. <i>Safar Barnoyev</i>	45
Dunyoni saqlar bolalar.(qo'shiq) <i>Kavsar Turdiyeva</i>	46
Botir askarcha. <i>Habib Rahmat</i>	47
Istiqlolga sharaf-shon. <i>Abdulhay Nosirov</i>	47
Biz – istiqolol farzandlarimiz. <i>Rauf Tolib</i>	48
Ikki qiz. <i>Habib Sa'dulla</i>	49
Jigarlarga tilaklarim. <i>Maqsud Shayxzoda</i>	50
Bahor yaqin. <i>Zafar Diyor</i>	51
Bayramingiz muborak. <i>Yusuf Shomansur</i>	52

Ko'klam yomg'iri. <i>Cho'lpon</i>	53
Daraxtlarni oqlaganda. <i>Yusuf Shomansur</i>	54
Non haqida. <i>Tolib Yo'ldosh</i>	55
Ota- ona duosi. <i>Safo Ochil</i>	56
Kamtarlik haqida. <i>Erkin Vohidov</i>	57
Hunarni sev. <i>Tolib Yo'ldosh</i>	57
Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor. <i>Muhammad Yusuf</i>	58
Quvnoq o'tsin ta'tilingiz! <i>Ilyos Muslim</i>	59
Serquyosh o'lka. <i>Zafar Diyor</i>	60
Mardlik va aql yorug'ligi. <i>Miraziz A'zam</i>	61
Kuz. <i>Shukur Sa'dulla</i>	62
Dehqon. <i>Sulaymon Rahmon</i>	63
Bo'ring tabib bo'lgani haqida ertak. <i>Anvar Obidjon</i>	63
Buni toping, qizlarim. <i>G'afur G'ulom</i>	66
Qish to'zg'itar momiq par. <i>Qudrat Hikmat</i>	67
Nurxon bilan Burhon. <i>Miraziz A'zam</i>	68
Kimning xati chiroyli? <i>Sulton Jo'ra</i>	69
Qush tili. <i>Mirtemir</i>	70
Bahor. <i>Qudrat Hikmat</i>	71
Jala darakchisi. <i>Habib Rahmat</i>	72
Tut. <i>Mirtemir</i>	73
Tinchlik qushi haqida men o'qigan she'r. <i>Shukur Sa'dulla</i>	74
Navoiy bobomlar. <i>Tursunboy Adashboyev</i>	75
Yoz. <i>Shukur Sa'dulla</i>	75
Non qayerdan keladi? <i>Qambar O'tayev</i>	76
Suv bilan suhbat. <i>Zafar Diyor</i>	77
Muqobil taklif. <i>X.Komilov</i>	78
Ibrat. <i>X.Komilov</i>	79

BOLALAR ADABIYOTI ANTOLOGIYASI

Uslubiy qo'llanma

Tuzuvchilar: : A.AZIMOV, Z.QURBONOV,
M.HAZRATQULOV, N.SHAVAZOVA

Nashr tahriri mualliflar tomonidan amalga oshirilgan.

Musahhih Mardon Ro'ziboyev

Tex. muharrir Mardon Ro'ziboyev

2008-yil 19-iyun 68-buyruq.

2012-yil 25-mayda noshirlik bo'limiga qabul qilindi.

2013-yil 15-martda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.

Bichimi 60x84/ 1, 16. «Times New Roman» garniturasida. Ofset qog'ozi.

«Risograf» matbaa uskunasi bosildi. Shartli bosma tabog'i – 5,25

Nashriyot hisob tabog'i – 3,5. Adadi – 25 nusxa. 122-buyurtma.

SamDU bosmaxonasida chop etildi.

140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15.



ISBN 978-9943-4079-7-8



9 789943 407978 >